**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG`BEK NOMIDAGI O`ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

| | |
|---|---|
| **RO`YXATGA OLINDI** | **TASDIQLAYMAN** |
| BD 5Q30100334 | **Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali kengashi raisi O. Turakulov** |
| "29" 06 **202_ yil** | "___" ________ **202_ yil** |

**LOYIHALARNI BOSHQARISH**
**FAN DASTURI**

| | | |
|---|---|---|
| Bilim sohasi | 200000 | -Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq |
| Ta'lim sohasi | 230000 | -Iqtisodiyot |
| Ta'lim yo`nalishi | 5230100 | -Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) |

| | | |
|---|---|---|
| Umumiy o'quv soati | 120 soat | |
| Ma'ruza | 30 soat | (5-semestr 30 soat) |
| Amaliy mashg'ulot | 30 soat | (5-semestr 30 soat) |
| Mustaqil ta'lim | 60 soat | (5-semestr 60 soat) |

Fan dasturi Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Kengashining 202_-yil "__" __________dagi ____-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

Y. Azimov O'zMUJF,"Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi.

Taqrizchi:
R. Xidoyatov — JizPI "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.

Fan dasturi "Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar" kafedrasining 2022-yil "22" 08 dagi 1-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet uslubiy Kengashiga muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: ____________ B. Nosirov

Fan dasturi "Psixologiya" fakulteti uslubiy Kengashida muhokama etilgan va filial ilmiy-uslubiy Kengashiga muhokama uchun tavsiya qilingan (2022-yil "___" _________dagi ___ - sonli bayonnoma).

Fakultet uslubiy Kengashi raisi: ____________ N. Alimov

Fan dasturi filial ilmiy-uslubiy Kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (202_-yil "___" __________dagi ___ - sonli bayonnoma).

Filial ilmiy-uslubiy Kengashi raisi: ____________ R. Abduraxmanov

| Fan/modul kodi BIET306 | O`quv yili 2022-2023 | Semestr 5 | ECTS – Kreditlar 4 |
|---|---|---|---|
| **Fan /modul turi Qo`shimcha** | **Ta’lim tili O`zbek** | | **Xaftadagi dars soatlari 4** |

| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg’ulotlari | Mustaqil ta’lim | Jami yuklama |
|---|---|---|---|---|
| | **Loyihalarni boshqarish** | **60** | **60** | **120** |

| 2. | |
|---|---|
| | **I. Fanni o‘qitishdan maqsad –** talabalarda zamonaviy sharoitda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bilan bog‘liq holda ta’lim yo‘nalishiga mos bilim, ko‘nikma va malakani shakllantirishdir.<br>**“Loyihalarni boshqarish” fanining asosiy vazifalariga:**<br>- Loyihalarni boshqarish faoliyatida milliy iqtisodiyot va jamiyat ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish yo‘nalishlarini o‘rgatish;<br>- Loyihalarni boshqarish faoliyatida resurs potensialini o‘rganish. Foyda va qurilish ishlab chiqarishining ta’sirini o‘rganish;<br>- hozirgi modernizatsiyalash sharoitida Loyihalarni boshqarish faoliyatini tashkil qilish va bu yo‘nalishda qo‘llaniladigan usullarni o‘rgatish;<br>-Loyihalarni boshqarish faoliyatida tashkilotni ichki tashkiliy va funksional tuzilishini tahlil qilish va ularni o‘zaro martabasini aniqlash;<br>-Loyihalarni boshqarish faoliyatida tashqi muhit bilan aloqa o‘rnatish va uni o‘rganish yo‘llari. Birgalikda ish yuritadigan korxona va tashkilotlarni darajasini hisobga olgan holda aloqa o‘rnatish;<br>- Loyihalarni boshqarish faoliyatida qo‘llaniladigan informatsiyani topa bilish, saqlash va o‘z vaqtida unga kerakli bo‘lgan o‘zgarishlarni kiritish;<br>- Loyihalarni boshqarishda boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ularni tegishli sub’ektlarga etkazish va boshqaruvini amalda nazorat qilish uslublarini o‘rgatish;<br>-Loyihalarni boshqarishda o‘zgarishlarga doimiy ravishda tayyor bo‘lishni o‘rgatish.<br>**“Loyihalarni boshqarish” fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida *talaba*:**<br>- milliy iqtisodiyot rivojlanishning zamonaviy yo‘nalishlari va qonuniyatlari hamda ularni Loyihalarni boshqarish tamoyillarini; |

investitsiya loyihalari va ularning iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishdagi o'rnini; investitsiya loyihalarini amalga oshirishdagi ishtirokchilar va ularning majburiyatlarini; qurilishni tashkil etish va Loyihalarni boshqarish jarayonlari hamda uni tahlilini ***bilishi kerak;***

- moddiy ishlab chiqarish sohasi sifatidagi qurilishning ixtisoslashuvi hamda uning ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarish funksiyalarini amalga oshirish; qurilishning boshqa tarmoqlar bilan aloqasini hamda ushbu aloqalarning iqtisodiyot va qurilishning ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash; qurilishning tashkiliy tuzilmasi va boshqarish tizimini tashkil etish; investitsiyalash va qurilish sohasidagi davlatning zamonaviy siyosatini olib borish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;***
- loyiha portfeli boshqaruvi, Loyihalarni boshqarishning zamonaviy uslubi,Loyihalarni boshqarishda vaqt me'yorlari, loyihaboshqaruvida sifat, narx, loyiha tavakkalchiligi boshqaruvi, Loyihalarni boshqarishda inson resurslari, nizolar, innovatsiyalarbilan bog'liq masalalarni hal etish; Loyihalarni boshqarishda resurslardan oqilona foydalanish masalalarini hal etish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

O'zbekistonda Loyihalarni boshqarishtizimiga ilmiy qiziqish o'smoqda. Shu sababli Loyihalarni boshqarishnuqtai nazarlarini asosli va chuqur o'rganish, hamda amaliy xarakterdagi masalalarni hal qilishga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

## II.ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)

### 2.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

### 1-mavzu. Loyihalarni boshqarish fanining predmeti va mazmuni.

Loyihalarni boshqarishning mohiyati, loyihalarni boshqarish tarixi, loyiha va investisiyalarni boshqarishning o'zaro bog'liqligi, boshqarish texnologiyasi

### 2-mavzu. O'zbekistonda Loyihalarni boshqarishni rivojlanish istiqbollari.

Loyihalarni boshqarish Milliy agentligi haqida umumiy ma'lumotlar. O'zbekistonda investisiya siyosatini takomillashtirish va isloh qilish, loyihalarni boshqarishni amalda qo'llash

| | |
|---|---|
| | tendensiyalari. Boshqaruv standartlari: xususiyatlar, tizimni ishlab chiqish va qo'llash<br><br>**3-mavzu. Loyihalarni boshqarishning zamonaviy uslubi**<br>Loyihalarni boshqarishning rivojlanish istiqbollari. Zamonaviy loyihalarni boshqarish. Loyihalarni boshqarishning zamonaviy metodalogiyasi. Loyiha boshqaruvining metodi.<br><br>**4-mavzu. Loyiha tizimini strategik boshqaruvi.**<br>Loyihani boshqarishning asosiy atamalari. Loyiha ishtirokchilari. Loyihalarni boshqarish funksiyalari. Rejalashtirish jarayoning asosiy tartib-qoidalari. Strategiyaga yo'naltirilgan loyihalar.<br><br>**5-mavzu. Biznes-tuzilmaviy loyihalar.**<br>Prinsiplar, metodlar va rejalashtirish tizimi. Biznes-rejaning mazmuni. Biznes-strukturaviy loyihalarning moliyaviy qismi. Biznes-strukturaviy loyihalar<br><br>**6-mavzu. Tashkilotda loyihalarni boshqarish tizimi va uni tashkil etish**<br>Tizimlarni boshqarish. Tashkilotda loyihani boshqarish tizimini joriy qilish sabablari. Korxonada loyihalarni boshqarish tizimini joriy etish bosqichlari.<br><br>**7-mavzu. Loyihalarni boshqarishda vaqt me'yorlari.**<br>Vaqt parametrlari bo'yicha loyihalarni boshqarishning asosiy ko'rsatkichlari. Vaqtni rejalashtirishning asosiy usullari. Vaqt parametrlari bo'yicha loyihani rejalashtirish<br><br>**8-mavzu. Loyihalarni boshqarishda kommunikatsiyalar**<br>Loyiha boshqarish jarayonida aloqa jarayonining asosiy tushunchalari. «5-S aloqa» tizimi tushunchalari. Aloqa to'siqlarining manbalari<br><br>**9-mavzu. Loyiha boshqaruvida sifat**<br>Loyiha sifatini boshqarishning zamonaviy yondashuvi. Loyiha sifatini boshqarishning asosiy bosqichlari. Loyiha sifatining xarajatlarini tasniflash. |

**10-mavzu. Loyihalarni boshqarishda narx**

Loyiha resurslari va xarajat. Loyiha xarajatlarini boshqarish jarayoni. Qiymat muhandislik tizimining mohiyati. Qiymat injiniringi tizimining tarkibi.

**11-mavzu. Loyiha tavakkalchiligi boshqaruvi**

Asosiy tushunchalar: xatar va noaniqlik. Xatarlarni (risklarni) boshqarish. Investisiya xatarlarini baholash modellari. Loyiha xatarini boshqarish

**12-mavzu. Loyihalarni boshqarishda inson resurslari**

Xodimlarni boshqarishning asosiy prinsiplari. Loyihani boshqarishning kadrlar jihatlari. Xodimlarni boshqarishning psixologik jihatlari. Loyiha jamoasi motivatsiyasi.

**13-mavzu. Loyihalarni boshqarishda nizolar**

Mojaroning asosiy tushunchalari, nizolar turlari. Nizolarni boshqarish funksiyalari va usullari. Loyihani boshqarish jamoasi.

**14-mavzu. Loyihalarni boshqarishda innovatsiyalar**

Innovasion ishlanmalarning xususiyatlari. Innovasion loyihalarni tasniflash. Innovasion loyihalarni kompleks baholanishi.

## III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO`YICHA KO`RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlarda ma'ruzada bayon qilingan nazariy bilimlarni mustahkamlash, fan bo'yicha olingan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va bilish qobiliyatlarini o'stirish, nazariy o'qitish jarayonida egallangan bilimlarning amaliyotga tadbiq etilishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Tavsiya etilgan adabiyotlar ma'lumotlari yordamida mavzuga oid bilimlarni mustahkamlash va ko`nikmalar shakllnishiga erishish ko`zda tutiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyaning interfaol usullari yordamida o'tkazilgan seminar mashg'ulotlaridan asosiy maqsad – talabalarning faol ishlashi va mustaqil fikrlashi, o'zini o'zi baholash va boshqalarning fikrlarini hurmat qilish, mustaqil ishlash hamda guruhda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

| | | |
|---|---|---|
| | | **Amaliy mashg'ulotlari uchun tavsiya etilgan mavzular**<br>1. Loyihalarni boshqarish fanining predmeti va mazmuni.<br>2. O'zbekistonda loyihalarni boshqarishni rivojlanish istiqbollari.<br>3. Loyihalarni boshqarishning zamonaviy uslubi.<br>4. Loyiha tizimini strategik boshqaruvi.<br>5. Biznes-tuzilmaviy loyihalar.<br>6. Tashkilotda loyihalarni boshqarish tizimi va uni tashkil etish.<br>7. Loyihalarni boshqarishda vaqt me'yorlari.<br>8. Loyihalarni boshqarishda kommunikatsiyalar.<br>9. Loyiha boshqaruvida sifat.<br>10.Loyihalarni boshqarishda narx.<br>11. Loyiha tavakkalchiligi boshqaruvi<br>12. Loyihalarni boshqarishda inson resurslari<br>13. Loyihalarni boshqarishda nizolar<br>14. Loyihalarni boshqarishda innovatsiyalar<br>Amaliy mashgulotlar multimedia qurulmalari bilan jixozlangan auditoriyada bir akademik guruxga bir professor- o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.<br><br>**IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR.**<br>Mustaqil ta'lim ma'ruza, seminar(amaliy, laboratoriya) *(Izoh: o`quv reja asosida keltiriladi)* mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni o'z ichiga oladi.<br>**Mustaqil ta'lim quyidagi shakllarda tashkil etish tavsiya etiladi:**<br>• mavzularni normativ-huquqiy hujjatlar va o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;<br>• mavzular bo'yicha referat tayyorlash;<br>• seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;<br>• ilmiy maqola va tezislarni tayyorlash;<br>• fanning dolzarb muammolarini qamrab oluvchi loyihalar tayyorlash;<br>• nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;<br>• amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish;<br>• o'rganilayotgan mavzu bo'yicha asosiy ilmiy adabiyotlarga |

| | |
|---|---|
| | annotatsiya yozish va boshqalar.<br>Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni, o'qitishning interfaol usullarini qo'llash talaba tomondan mustaqil tanlanadi. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish tizimli tarzda, ya'ni uzluksiz va uzviy ravishda amalga oshiriladi. Talaba olgan nazariy bilimini mustahkamlash, shu bilan birga navbatdagi yangi mavzuni puxta o'zlashtirishi uchun mustaqil ravishda tayyorgarlik ko'rishi kerak.<br>**Mustaqil ish uchun tavsiya etilgan mavzular**<br>1.Loyihalarni boshqarish fanining predmeti va mazmuni<br>2.O'zbekistonda Loyihalarni boshqarishni rivojlanish istiqbollari<br>3.Loyihalarni boshqarish jarayonlari va uni tahlili<br>4.Loyihalarni boshqarishning zamonaviy uslubi<br>5.Loyiha tizimini strategik boshqaruvi<br>6.Biznes-tuzilmaviy loyihalar<br>7.Loyiha portfeli boshqaruvi<br>8.Tashkilotda Loyihalarni boshqarish tizimi<br>9.Loyihalarni boshqarishni tashkil etish<br>10.Loyiha boshqaruvida vaqt me'yorlari<br>11.Loyihalarni boshqarishda kommunikatsiyalar<br>12.Loyihalarni boshqarishda sifat<br>13.Loyihalarni boshqarishda narx<br>14.Loyiha tavakkalchiligi boshqaruvi<br>15.Loyihalarni boshqarishda inson resurslari<br>16.Loyihalarni boshqarishda nizolar<br>17.Loyihalarni boshqarishda informatsion texnologiyalar<br>18.Loyihalarni boshqarishda innovatsiyalar<br>19.Chet el mamlakatlarida Loyihalarni boshqarish<br>20.Loyihani amalga oshirish holatini baholash va o'zgarishlarni bashorat qilish.<br>21.Loyihalarni boshqarishni nazorat qilish va tartibga solish.<br>22.Loyihani samaradorligi<br>23.Investitsion loyihalarning samaradorligi<br>24. Innovatsion loyihalarni ishlab chiqish bosqichlari va innovatsion loyihalarni boshqarish tamoyillari.<br>25. Loyihaning klassifikatsiyasi va uning tashkiliy tuzilishi<br>26.Bozor iqtisodiyotini chuqurlashuvi sharoitlarida Loyihalarni boshqarishni takomillashtirishning tajribasi va vazifalari.<br>27.Bozor xo'jaligi sharoitlarida Loyihalarni boshqarishningdolzarb |

| | |
|---|---|
| | muammolari.<br>28. Loyihalarni boshqarish sohasidagi tashkiliy-iqtisodiy yangiliklar.<br>29.Loyihalarni boshqarish tizimlarini boshqarish.<br>30.Asosiy Loyihalarni boshqarish xizmatlari bo‘yicha harajatlar. |
| **3.** | **Fan o`qitilishining natijalari.**<br>Fanni o‘zlashtirishda talaba Loyihalarni boshqarish fanining predmeti va mazmuni, O‘zbekistonda loyihalarni boshqarishni rivojlanish istiqbollari, loyihalarni boshqarish jarayonlari va uni tahlili, loyihalarni boshqarishning zamonaviy uslubi, loyiha tizimini strategik boshqaruvi, biznes-tuzilmaviy loyihalar, loyiha portfeli boshqaruvi, tashkilotda loyihalarni boshqarish tizimi bo`yicha bilim va ko`nikmalarga ega bo‘lishi kerak. |
| **4.** | **Ta’lim texnologyailari metodlari.**<br>o ma’ruzalar;<br>o real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;<br>o esse, tezis va maqolalar yozish;<br>o vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadilar) yechish;<br>o seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>o kichik guruhlarda ishlash;<br>o loyiha ishi bajarish;<br>o mustaqil ishlarni bajarish;<br>o turli darajadagi testlarni yechish;<br>o so’rov o’tkazish |
| **5.** | **. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar.**<br>1. M.S.Qosimov. “Loyiha boshqaruvi”. O‘quv qo‘llanma. – T.:«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021–160 b.<br>2. “Управление проектами: фундаментальный курс: Учебник” / А. В. Алешин, В.М. Аншин, К. А. Багратиони и др. ; под ред. В. М. Аншина, О. Н. Илиной ; Нац. Исслед. Ун-т "Высшая школа экономики". М. 2013.<br>3. Qosimova D. “Menejment nazariyasi”, darslik T. :Tafakkur-Bo'stoni, 2011. - 336 b |

| | |
|---|---|
| | 4. Nurimbetov R.I. “Menejment nazariyasi fanidan kurs ishini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma”, T. : Uzbekiston, 2009. - 26 s.<br>5. Karimova, O.U. “Menejment asoslari”, O‘quv qo‘llanma, T. : TAQI, 2010.<br>**Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoev Shavkat Miromonovich. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.” 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2017.-104 b.<br>2. Mirziyoev Shavkat Miromonovich. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”./ SH.M. Mirziyoev. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2017. -592 b.<br>3. Илина О.Н. Методология управления проектами, Становление, Современное состояние и развитие. М. :ИНФРА-М; Вузовский учебник, 2011.<br>4. Полковников А.В., Дубовик М.Ф. Управление проектами. / Полный курс для МВА. - М.: ЗАО «Олимп - Бизнес», 2013<br>5. Project management handbook Copyright © authors and Laurea University of Applied Sciences 2017.<br>**Internet ma`lumot**<br>1. www.uza.uz<br>2. www.lex.uz<br>3. www.ziyonet.uz<br>4. www.stat.uz<br>5. http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasida-loyi-a-bosh-aruvi-tizimini-zhoriy-e-24-07-2017 |
| **7** | Fan dasturi Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti Jizzax filialining 202_ yil ___avgustdagi №______ sonli Kengashida tasdiqlangan |
| **8** | **Fan/modul uchun ma’sullar:**<br>B. Muxtorov – “Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar” kafedrasi dosenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi<br>Y. Azimov - “Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar” kafedrasi kata o’qituvchisi. |
| **9** | **Taqrizchilar:**<br>R. Xidoyatov – Jizzax politexnika instituti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi dosenti<br>M.Soy – O`zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali “Ijtimoiy va iqtisodiy fanlar” kafedrasi dosenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi |